

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.A.Saparbayeva

Madaniyat va san'at instituti talabalarining havaskorlik ssenariylar
yozish qobiliyatini shakllantirish..... 313

H.M.Asadov

Mavzu, mazmun va lirk qahramon talqini 318

A.A.Yarkulov

Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash to'g'risida ba'zi mulohozalar 322

H.A.Djurayev, N.N.Nabiyeva, Sh.F.Latipov

Abdulla Qodiriy ijodida teatr san`atining o'rni 329

J.DJ.Ashurov, E.X.Bozorov

Oliy ta'lim muassasalarida "Yadro tibbiyotida radiatsion xavfsizlik" mavzusini
o'qitishda muammoli vaziyat metodini qo'llash 332

D.M.Yuldasheva, S.S.Nishonova

Bolalar ertak matnlarining kognitiv-semantik xususiyatlari 336

M.I.Imomaliyeva

Amiriy ijodida Yusuf obrazi 339

G.M.Qosimova, M.I.Ne'matova

Inson tabiatini va xarakterini ifodalovchi frazeologizmlarning semantik xususiyatlari 343

N.Maqsudov

Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirish – demokratik davlatning muhim belgisi 345

S.A.Olimjonov

Erix Mariya remarkning "Uch og'ayni" romanida ifoda va talqin 347

Z.A.Akbarova, N.Mamasoliyeva

O'zbeklar olam Lisoniy manzarasida "Sabr" konsepti 351

I.S.Mannopov

Xoja Ahmad Yassaviy ijodida munozara janri 354

ХОJA AHMAD YASSAVIY IJODIDA MUNOZARA JANRI

ЖАНР ДИСКУССИ В ТВОРЧЕСТВЕ ХОДЖА АХМАДА ЯССАВИ

GENRE DISCUSSION IN KHOJA AHMAD YASSAVI'S WORKS

Mannopov Islombek Sultonaliyevich¹

¹Mannopov Islombek Sultonaliyevich

– Farg'ona davlat universitri doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Munozara janri jahon so'z san'ati tarixining eng qadimiy janrlaridan biridir. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining "Behisht" va "Do'zax" asari orqali o'zbek mumtoz adabiyotida birinchi bo'lib mustaqil asar ko'rinishidagi munozara janriga asos soldi. U turkiy xalqlarni irshod qilish vazifasida munozara janridan ham samarali foydalandi. Munozarada tashxis, talmih, intiq singari she'riy san'atlar vositasida kibr, manmanlik, zulm, axloqsizlik, munofiqlik qattiq qoralanadi, sabr-toqat, kechirimli bo'lish, poklik, oriflik singari fazilatlar ulug'lanadi. Asar qadimgi turkiy she'riyat an'analari asosida bitilgan. Xoja Ahmad Yassaviyning munozarasida qadimgi turkiy she'riyat an'analari ushbu asarning shakli va xalqona uslubida yorqin namoyon bo'lgan.

Аннотация

Жанр дебатов — один из древнейших жанров в истории мирового искусства речи. Ходжа Ахмед Ясави с своими произведениями «Рай» и «Ад» первым в узбекской классической литературе закрепил жанр дискуссии в виде самостоятельного произведения. Он также эффективно использовал жанр дебатов для просвещения тюркских народов. В диспуте сурою осуждаются высокомерие, самомнение, самодурство, безнравственность, лицемерие, а прославляются такие добродетели, как терпение, всепрощение, чистота, мудрость. Произведение основано на традициях древней турецкой поэзии. В обсуждении Ходжи Ахмеда Яссави традиции древнетурецкой поэзии ярко проявились в форме и народном творческом стиле этого произведения.

Abstract

The genre of debate is one of the oldest genres in the history of the world art of speech. Khoja Ahmed Yasawi, with his works "Paradise" and "Hell", was the first in Uzbek classical literature to consolidate the genre of discussion in the form of an independent work. He also effectively used the genre of debates to educate the Turkic peoples. In the dispute, arrogance, conceit, tyranny, immorality, hypocrisy are severely condemned, and such virtues as patience, forgiveness, purity, wisdom are glorified. The work is based on the traditions of ancient Turkish poetry. In the discussion of Khoja Ahmed Yassavi, the traditions of ancient Turkish poetry were clearly manifested in the form and folk creative style of this work.

Kalit so'zlar: Ahmad Yassawi, Devoni hikmat, munozara janri, talmih, tashxis, she'r shakli, ijodiy uslub.

Ключевые слова: Ахмад Яссави, «Девони Хикмат», жанр дебатов, талмих, ташхис, форма поэзии, теорческий стиль.

Key words: Ahmad Yassawi, «Devoni hikmat», genre of debate, talmikh, tashkhis, form of poetry, creative style.

KIRISH

O'zbek tasavvuf adabiyotining asoschisi Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» to'plamida hikmat, me'rojnama, munojot, marsiya singari asarlar bilan birga munozara janriga oid she'r ham joy olgan. XII asrda munozara janriga oid asarlarning dunyoga kelishi o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida muhim hodisa bo'ldi.

Munozara ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, madaniy hayotning barcha sohalarida mavjud hodisadir. Ilm-fan va san'atda mavjud munozaralarni ikki turga ajratish mumkin. Birinchisi, ilmiy munozara va savol-javob kabi usullardan foydalangan holda din, mantiq, va falsafa bilan bog'liq masalalar muhokama qilinadigan didaktik ilmiy matnlardir. Ular ma'lum ilmiy qoidalarga tayanadigan intellektual munozara hisoblanadi. Ikkinchisi, adabiy munozara bo'lib, ular turli xil mavjudotlar yoki tushunchalar ifodalaydigan fikrning ustunligini isbotlash uchun keltirilgan she'riy va nasriy asarlardir [1.169].

Adabiy munozaralarni mavzu jihatidan tasniflashda olimlarning qarashlari bir-biridan farq qiladi. Sharq mumtoz adabiyotida mavjud munozaralarni mazmuniga ko'ra uch turga ajratish mumkin:

- ijtimoiy-siyosiy mavzudagi munozaralar;
- axloqiy-didaktik mavzudagi munozaralar.
- Diniy-tasavvufiy mavzudagi munozaralar.

Shu tasnifga ko'ra Xoja Ahmad Yassaviyning "Do'zax" va "Behisht" munozarasi diniy-tasavvufiy mavzuda bitilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xoja Ahmad Yassaviyning "hikmat" deb nomlangan she'rlaridan maqsad arab tilini bilmaydigan, asosan shaharlardan yiroqda yashaydigan chorvador turk elatlarini hidoyat yo'liga boshlash, ularni islam ahkomlari va musulmonlik odobi bilan bahramand qilish edi. Qadimdan turk elatlarida so'z san'atiga qiziqish juda kuchli va she'riyat taraqqiy etgan edi. Zero, "Devoni lug'at it-turk" [2.488] da keltirilgan qo'shiq, munozara, doston, marsiya va boshqa she'riy janrlarga oid namunalar bu hodisaning to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi.. Turklarning ruhiyatiga ular suygan she'riyat yo'li bilan ta'sir qilishda "Piri Turkiston" munozara janridan ham samarali foydalangan.

Ma'lumki, Islom dinining besh asosiy farzlaridan biri iymondir. Iymonning eng muhim shartlaridan biri esa oxirat kuniga ishonishdir. Musulmon kishining e'tiqodiga ko'ra oxiratda inson hayoti davomida qilgan barcha yaxshi-yomon amallari uchun javob beradi. Ya'ni, yo Jannat bog'larida mangu saodatga erishadi yoki jahannam chuqurlarida abadiy azoblanadi. Tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan XI-XII asrlarda yashagan ajdodimiz uchun iymon-e'tiqod, oxirat, jannah va jahannam mavzulari diqqatga sazovor masalalardan edi. Shuning uchun ham Xoja Ahmad Yassaviy o'z munozarasining asosiy qahramonlarini "Do'zax" va "Behisht" sifatida belgiladi.

Munozara janrinning asosiy talablaridan biri bahsga kirishuvchi taraflarning mavjudligidir. She'rda bahsga kirishuvchi ikki qarama-qarshi taraf "Behisht" va "Do'zax"dir. Munozara "hakam", "muallif" deb atash mumkin bo'lgan uchinci tomonning "Behisht" va "Do'zax"ning o'zaro bahslashayotgani haqidagi xabar bilan boshlanadi. Tortishuvda avval tilga olingan "Behisht" emas, balki "Do'zax" o'zining ustunligini bayon qiladi:

Behisht, do'zax taloshur, talashmoqda bayon bor,

Do'zax aytur: "Man ortuq, manda Fir'avn, Hamon bor" [3.256].

Muallif Do'zaxning tili bilan Fir'avn [4.118] va Hamonning jahannamda ekanligini bayon qilmoqda. Fir'avn qadimda misr podshohlariga berilgan nom bo'lib, o'sha davr pagan inonch-e'tiqodiga ko'ra tangrining o'g'li deb qaralgan. O'zbek tasavvuf she'riyatiida Fir'avn kibr, nafs va manmanlik illatlarini fosh etishda ramz sifatida qo'llangan. Asarda birinchi bo'lib qoralanayotgan illat kibr ekanligi tasodif emas. Manbalardan ma'lumki, Odam alayhissalom yaratilganda birinchi bo'lib bahsga kirishgan shayton o'z kibri tufayli mal'ungra aylangan edi. Kibr – o'zidan boshqalarni past ko'rish, haqiqatni tan olmaslik, Allohning hukmlarini bajarmaslik. Baytda "kibr insonni jahannamga olib boruvchi eng yomon illatdir" degan fikr ilgari surilgan. "Buyuk murshid" nazarida bu voqelik haqiqat, ilmi hikmat bu haqiqatni yorituvchi ma'rifat ziyosi, ruh va idrok birligida anglashlik esa oriflikdir.

Munozaraning birinchi baytida Fir'avndan so'ng Hamon ismining ham tilga olinishi diqqatni tortadi. She'riy asar shunday qurilmaki, unda hech bir komponent, hech bir so'z maqsadsiz qo'llanilmaydi. Misraning mazmunini to'liq o'zlashtirish uchun Hamonning kim ekanligini bilish zarurati tug'iladi. Qur'oni Karimda olti marta, qadimgi misr tilida bitilgan tosh bitiklarda ham ismi tilga olingan Homon Fir'avning vaziri, yaqin odami edi [5]. She'r misrasida Hamonning Fir'avn bilan yonma-yon keltirilishi bilan zolim va mutakabbirga yordam beradiganlar toifasi qoralanmoqda.

Ma'lumki, munozara janrida bahslashuv, asosan, tabiatdagi mavjudotlar, narsa va predmetlar, tabiiy va sub'yektiv hodisa va boshqalar o'rtasida yuzaga keladi. Shuning uchun bunday asarlarda tashxis san'ati faol qo'llanadi. Tashxis (jonlantirish) hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chirish san'atidir [6.150]. Munozaraning boshlanishida muallif tilidan "Behisht, do'zax taloshur" – deya berilgan xabarda tashxis san'ati qo'llangan. "Behisht" va "Do'zah"ga insonlarga xos bahslashuv, tortishuv xususiyati ko'chirilgan.

Munozaraning ikkinchi baytida javob berish navbatni "Behisht"da bo'lib, u o'zining ustunligini iddao qilgan "Do'zax"ga quyidagicha javob beradi:

Behisht aytur: "Ne dersan, so'zni bilmay aytursan,

Sanda Fir'avn bor bo'lsa, manda Yusuf Kan'on bor" [3.256].

"Behisht" nima sababdan Fir'avunga qarshi "Yusuf Kan'on" (Kan'onli Yusuf, M.I.) ni tilga keltirdi? Ma'lumki, Qur'onda ismi zikr qilingan Yusuf alayhissalom Misrda podshoh darajasigacha yuksalgan. Zohiran qaraganda, "Behisht" o'z javobi bilan bahs tarozisining pallasini tenglashtiradi. Yusuf alayhissalom va Zulayho o'rtasidagi ishq-muhabbat mojarosi sharq mumtoz adabiyotida eng ko'p yoritilgan mavzulardan biridir. O'zbek mumtoz adabiyotida Yusuf payg'ambar go'zallik ramzi

sifatida ifodalangan. Xoja Ahmad Yassaviy Yusuf va Zulayho o'rtasidagi ishq mojarosi yoki tashqi go'zallik ramzini ifoda vositasi sifatida qo'llanmagan. Baytning mazmuni, unda ishora qilingan ilmi hikmatning asl ma'nosi Yusuf alayhissalom qissasida yashiringan.

Sharq mumtoz adabiyotida mayjud Yusuf alayhissalom haqidagi qissa va dostonlarning voqealar syujeti Qur'oni Karim asosida bitilgan. Qur'onda Yusuf payg'ambar qissasi "Yusuf surasi"da bayon qilingan. Bir yuz o'n bir oyatdan iborat bu sura Makkada nozil bo'lgan va payg'ambarlar hayotidan hikoya qiluvchi suralardan biridir. Unda Yusuf payg'ambarning hayoti zikr qilinib, u zotning boshiga tushgan balolar, og'a-inillari va begonalardan ko'rgan kulfatlari – chohga tashlanishi, tuhmatga yo'liqqani, zindonband bo 'lgani, bunday og'ir ko'rgilklarga sabr-toqat qilishi natijasida oxir-oqibat zindon azobidan xalos qilinib, butun Misr zaminining mulku xazinasiga ega bo'lgani xususida so'z boradi [7. 197-210].

Yusuf payg'ambar nafaqat tashqi, balki ma'naviy go'zallik sohibi ekanligi uning chiroli sabr va sof e'tiqod egasi, pokiza ruhli, kechirimli inson singari fazilatlarida namoyon bo'ladi. Ikkinci baytda ilgari surilgan fikr shudir: "Fir'avn garchi podshoh bo'lsa ham, kibri va zulmi tufali jahannamga quladi; Kan'onli Yusuf esa sof e'tiqodi, to'g'riliqi, nafsiya moyil bo'lmay poklik yo'lini tanlagani, chiroli sabr-toqati tufayli zindonning quyilaridan podshohlik taxtiga yuksaldi va jannah bilan mukofotlandi".

Birinchi va ikkinchi baytlar mazmunini badiiy ifodalashda talmih san'ati asosiy vazifani bajargan. Talmih ("nazar solmoq") she'r yoki nasrda mash'hur tarixiy shaxs va voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san'atidir [8. 41]. Xoja Ahmad Yassaviy she'riyatida talmih san'ati badiiy ijod usuli darajasiga ko'tarilgan. "Devoni hikmat"da Qur'oni Karim oyatlari, muqaddas kitob qahramonlari – payg'ambarlar va shaxslarga juda ko'p murojaat qilingan. Munozarada ishora qilingan Yusuf alayhissalom, Fir'avn, Homon Quronni Karimda ismlari zikr qilingan va faoliyati yoritilan qahramonlardir. O'quvchi Yusuf alayhissalom nomiga qilingan ishorani ko'rар ekan, uning ko'z oldida butun voqelik jonlanib, shoir demoqchi bo'lgan g'oya, fikr, tuyg'ni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab yetadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Munozara janrida faol qo'llanidigan badiiy san'atlardan biri tazoddir. Sababi bu xildagi asarlarning fiziologiyasi ziddiyat, tortishuv, bahslashuv asosida shakllanadi. Tazod so'zi "zid qo'yish", "qarshilantirish" ma'nolarini ifodalaydi. Ushbu she'riy san'at esa asarda ma'no jihatidan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llab, ta'sirchan badiiy timsollar, lavhalar jonlantirishni nazarda tutadi.

Asarning keying baytlarini tashkil etgan fikr va g'oyalarni talqin etishda tazod she'r san'ati yetakchilik qilgan. Munozaraning eng muhim jann xususiyatlaridan biri o'z ustunligini bildirish uchun dalil keltirishdir. Xoja Ahmad Yassaviy ezgulik va uning mukofoti, yovuzlik va uning ayanchli oqibatini tazod san'atidan unumli foydalanim, bahslashuvchi taraflar tilidan dalil sifatida keltirgan:

| <i>Do'zaxning dalillari</i> | <i>Behishtning dalillari</i> |
|---|---|
| <i>Baxil qullar bo'ynida zanjir-kishan bor</i> | <i>Payg'ambarlar oldida kavsar, g'ulu g'ilmon bor</i> |
| <i>Juhud, tarso oldida turluk azob-so'zon bor</i> | <i>Mo'minlarni oldida turluk ne'mat-alvon bor</i> |
| <i>Zolimlarga berurga zahru zaqqum chandon bor</i> | <i>Olimlarni ko'nglida oyat, hadis, Qur'on bor</i> |
| <i>Munofiqlar bo'ynida o'tdin ishkil-kishan bor</i> | <i>Zokirlarni ko'nglida zikru fikri Subhon bor</i> |
| <i>Benomuslar bo'ynida ilon bilan chayon bor</i> | <i>Diydomi ko'rsatulg'a Rahim otlig' Rahmon bor</i> |

Asarda baxillik, zolimlik, munofiqlik va axloqsizlik singari illatlar qattiq qorqlanar ekan, mo'min, olim, zokirlar ezgu amallari tufayli xayrli natijaga erishgani eslatiladi. Munozarada Behishtning Allohnning jamolini ko'rish haqidagi so'zlaridan keyin Do'zah javob qaytarolmaydi va babsni to'xtatadi. Do'zahning yengilish holati va Behishtdan uzr so'rashi muallif tomonidan tasvirlanadi. Munozaranning eng so'nggi misrasida Xoja Ahmad Yassaviy g'ayb mavzularidan bo'lgan jannat va jahannam haqidagi qarashlarni Qur'on oyatlari va sahih hadislari vositasida yoritganiga ishora qiladi va asar o'z yakuniga yetadi:

Do'zax anda tek turdi, behisht uzrini aytdi,

Qu! Xoja Ahmad ne bildi, bildirguvchi Yazdon bor.

Xoja Ahmad Yassaviyning munozarasida qadimgi turkiy she'riyat an'analari ushbu asarning shakli va uslubida yorqin namoyon bo'lgan.

Munozara 13 baytdan tashkil topgan bo'lib, barmoq she'r tizimining o'n to'rtlik (7+7) turkumida bitilgan:

| | |
|---|----|
| 7 | 7 |
| Be-hisht, do'-zax ta-lo-shur,/ ta-lash-moq-da ba-yon bor, | 14 |
| 7 | 7 |

Do'-zax ay-tur: "Man or-tuq, man-da Fir-'avn, Ha-mon bor". 14

Munozara baytlari orasidagi qofiya "bayon", "Hamon", "Kan'on", "kishan", "g'ilmon", "so'zon", "alvon", "chandon", "Qur'on", "Subhon", "chayon", "Rahmon", "Yazdon" singari ohangdosh so'zlar vositasida yuzaga kelgan. "Bor" radifi asar davomida qofiyadosh so'zlardan keyin takrorlanib, she'r mazmunini birlashtirish, ayni paytda taraflar o'tasidagi tortishuv va ziddiyatni ifodalash uchun xizmat qilgan. Bundan tashqari radif stilistik, badiiy-estetik, g'oyaviy-ifodaviy vazifalarni ham bajargan. Asarning poetik shakllanishida muhim rol o'ynagan. Radifni to'g'ri tanlash va faol qo'llash ijodkor mahorati bilan bog'liq. Muallifning "bor" radifini tanlashi tasodify emas. Oddiy xalq o'z muloqotida, aniqrog'i, shaxslar bahslashganda "senda bo'lsa, menda ham bor" ko'rinishda qoliplovchi birikma qo'llanadi. "Bor" radifi ana shu ma'noda qo'llanib, boshqa lirik komponentlar bilan birgalikda she'rning xalqchillik xususiyatlarini ta'minlagan.

Munozarda "Behisht" va "Do'zax" odamlarday so'zlashi, o'z ustunliklarini namoyish qilishi intoq she'r san'ati vositasida yuzaga kelgan. Qahramonlarning nutqida adabiy uslub emas, xalq so'zlashuv muloqotida mavjud bo'lgan so'z, birikma va jumlalar faol qo'llangan. Masalan, "Behisht"ning "Do'zax"ga qarata aytilgan "ne dersan, so'zni bilmay aytursan" jumlesi xalq so'zlashuv muloqotida ko'p qo'llanadigan "Nima deyapsan, bilmasdan gapiryapsan" mazmuniga mos keladi. Asarda keltirilgan "talashmoq", "tek turmoq", "uzr aytmoq", "zahru zaqqum", "mo'minlarni oldida" singari so'z va birikmalar oddiy xalq kundalik hayotidan olingan bo'lib, asarning xalqchil chiqishi uchun xizmat qilgan. Munozaraning ijodiy uslubi "Devoni lug'atit-turk" asarida keltirilgan qadimgi turkiy she'riyat namunalariga mos keladi.

XULOSA

Xoja Ahmad Yassaviy o'zbek mumtoz adabiyotida birinchi bo'lib, mustaqil janr sifatidagi munozarani yozdi. Uning "Behisht" va "Do'zah" munozarasi diniy-tasavvufiy mavzuda bitilgan bo'lib, unda kibr, manmanlik, zulm, munofiqlik, axloqsizlik singari illatlar qattiq qoralanadi. Sabrli, kechirimli, go'zal axloq egasi bo'lism, mo'minlik, zokirlik singari fazilatlar ulug'lanadi. Asar garchi xalqona uslubda yozilgan bo'lsa ham, intoq, tashxis, tazod singari she'riy san'atlar mahorat bilan qo'llangan. Ushbu munozara shakl va uslub jihatidan qadimgi turkiy she'riyat an'analari asosida bitilgan. Xalqona ifoda Xoja Ahmad Yassaviy she'riyatida ijodiy uslub ko'rinishida namoyon bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. İdris Kadioğlu. "Kılıç Kalem Münazarası" // CBÜ Sosyal Bilimler Dergisi, Prof. Dr. Mahmut Kaplan Armağan Sayısı. C. IX, S. 2. – Ekim, 2011. (Idris Kadioglu. "Kılıç Kalem Discussion" // CBÜ Journal of Social Sciences, Prof. Dr. Mahmut Kaplan Gift Number. C. IX, S. 2. - October, 2011.)

2. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғати-т-турк [Туркий сўзлар девони]. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи , 2017. (Koshgari Mahmoud. Devonu lug'ati-t-turk [Dictionary of Turkish words]. - Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam, 2017.)

3. Яссавий А. Ҳикматлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. (Yassavi A. Hikmats. - Tashkent: Literature and Art, 1991.)

4. Ömer Faruk Harman-Mustafa Uzun, "Firavun", DIA, İstanbul, 1996. (Ömer Farouk Harman-Mustafa Uzun, "Pharaoh", DIA, Istanbul, 1996.)

5. <https://www.islamveihsan.com/haman-kimdir.html...>

6. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди , 2008. (Hojiahmedov A. Dictionary of classic art. - Tashkent: New century generation, 2008.)

7. Қуръони Карим, ўзбекча изоҳоли таржима. Таржима ва изоҳлар мулалифи Алоуддин Мансур. – Тошкент: Чўлпон, 1992. (Qur'an Karim, Uzbek annotated translation. The author of the translation and annotations is Alauddin Mansur. - Tashkent: Cholpon, 1992.)

8. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: "Шарқ" нашриёт матбаа концерни бош таҳририяти, 1999. (Hojiahmedov A. The merit of classical artistry. - Tashkent: "Sharq" publishing house, 1999.)